IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: WX34182580

**TASDIQLAYMAN:**
“O‘zmetkombinat” AJ
Boshqaruv raisi – bosh direktor
Pirmatov R.X.

## “O‘zmetkombinat” AJ ning 2023-yil uchun Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi HISOBOTI

| № | Amalga oshirilgan ishlar | Bajarilishi | Asos |
|---|---|---|---|
| **I. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi** | | | |
| **1.** | Monopoloyiga qarshi komplayens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 14 – sentyabrdagi 12-sonli bayonnomasi bilan “Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati” tasdiqlangan. | Tasdiqlangan “Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati” (PDF) formati ilova qilinmoqda. |
| **2.** | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi. | “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruv raisi tomonidan 2023-yil 24-mayda 2023-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. | Tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning elektron (PDF) formati ilova qilinmoqda. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **3.** | Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi. | "O'zmetkombinat" AJ ning rasmiy veb saytida sohaga oid murojaatlarni qabul qilish maqsadida **"Raqobat cheklanishi haqida xabar ber!"** aloqa kanallari tashkil etildi va Call – markaz faoliyati yo'lga qo'yildi:<br>(ichki raqam – 17 -07;<br>telefon raqamalar 70 214 19 17;<br>mobil raqam – 90 998 67 20;<br>*UMK_Anticor_bot* va eletkron pochta compliance@uzbeksteel.uz**.)** | "O'zmetkombinat" AJ ning rasmiy - veb saytida yaratilgan Call – markaz faoliyati yo'lga qo'yildi va "**Raqobat cheklanishi haqida xabar ber**!" nomli sahifa orqali kirish mumkin:<br>*https://www.uzbeksteel.uz/6363* |
| **4.** | Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot sifatli va o'z vaqtida taqdim etilganligi va rasmiy veb saytga joylashtirilganligi. | Monopoliyaga qarshi Komplayens haqidagi hisobot Raqobat qo'mitasiga belgilangan vaqtda taqdim etildi va tashkilotning rasmiy veb saytiga joylashtirildi. | "O'zmetkombinat" AJ ning 2023 – yil Monopoliyaga qarshi Komplayens haqidagi hisoboti Kombinat rasmiy veb – saytga joylashtirilgan, hisobot bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin.<br>*https://www.uzbeksteel.uz/contacts/5606* |
| **II. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishi xatarlarini aniqlash, baholash va ularning oldini olish tadbirlari amalga oshirilganligi** | | | |
| **5.** | Faoliyatga tegishli materiallarni o'rganish natijasida (shu jumladan, raqobatni yoki iste'molchilarning huquq va | Hisobot davrida "O'zmetkombinat" AJ faoliyatiga tegishli materiallarni o'rganish davomida quyidagi sohalarda qonunbuzilish holatlari | Materiallar va hujjatlarni o'rganish davomida aniqlangan kamchiliklar bo'yicha og'zaki ravishda ijrochilarga tushunturish ishlari olib borilgan va kamchiliklar bartaraf etilgan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazishda) aniqlangan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi. | aniqlanmagan.<br><br>1. Eng yaxshi taklif savdolari ishtirokchilariga asossiz talablar qo‘yish, shu jumladan ularning malakasiga nisbatan raqobatni cheklaydigan talablar qo‘yish aniqlandi. | |
| **6.** | Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ko‘rilgan choralar. | Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rildi. Misol uchun, tender savdolari ishtirokchilariga asossiz talablar qo‘yish, shu jumladan ularning malakasiga nisbatan raqobatni cheklaydigan talablar qo‘yish holati yuzasidan texnik topshiriqlarni qaytadan ishlab chiqish bo‘yicha Komplayens – xizmati tomonidan tegishli takliflar berildi. | “O‘zmetkombinat” AJ da joriy yilda ishchi – xodimlar va mansabdor shaxslar tomonidan qonunbuzilish holatlari va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmagan. |
| **7.** | Faoliyat davomida oldi olingan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi. | “Ozmetkombinat” AJ tomonidan davlat ishtirokidagi ho‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga oid harakatlar amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan holatlarda Komplayens – xizmati tomonidan qonunchilikka muvofiq | “Ozmetkombinat” AJ tomonidan davlat ishtirokidagi ho‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etishga oid harakatlar amalga oshirilmagan. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | dastlab monopoliyaga qarshi organning roziligi olinganidan so‘ng amalga oshirilishi zarurligi tushuntirilgan. | |
| **8.** | Jamiyat faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillar aniqlanganligi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi. | “O‘zmetkombinat” AJ komplayens – xizmati tomonidan 2023-yil davomida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan quyidagi omil aniqlandi. Eng yaxshi taklif savdolariga oid ishlab chiqilgan texnik topshiriqlarda ishtirokchilar o‘rtasida raqobatni cheklaydigan ortiqcha talablar kiritilgan. | Aniqlangan raqobat cheklovlarini keltirib chiqarish mumkin bo‘lgan omil va uni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ijrochilarga og‘zaki tarzda berilgan va barcha kiritilgan takliflar ijrochilar tomonidan amalda bartataf etilgan. |
| **9.** | Qabul qilinadigan ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi. | “O‘zmetkombinat” AJ da vakolatli shaxs tomonidan qabul qilinadiga ichki hujjatlarning loyihalarida raqobatni cheklaydigan normalrni aniqlash va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida jami 1381 ta ichki hujjatlar loyihalari o‘rganildi va tegishli takliflar berildi. | Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha takliflar og‘zaki tarzda berilgan va ijrochilar tomonidan bartaraf etilgan. |
| **10.** | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib, | Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlaridan kelib chiqib barcha ichki idoraviy | Qonunchilikga kiritilgan yangiliklarni hisobga olinib ishlab chiqilgan va tasdiqlangan “Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati” (PDF) |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tadbiq etilganligi. | hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan. | formati ilova qilinmoqda. |
| **11.** | Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan OAV va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar. | “O‘zmetkombinat” AJ da monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan Jamiyatning rasmiy veb – saytida yoritilgan. | Jamiyat rasmiy veb – saytida ushbu ma’lumotlar yoritilgan tadbirlar havolasi yuborilmoqda. *https://www.uzbeksteel.uz/6078* |
| **III. Davlat organlari va ho‘jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo‘yicha amalga oshirgan ishlari** | | | |
| **12.** | Tashkilotda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta’minlash maqsadida vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanganligi, uning zarur resurslar va boshqa moddiy – texnik baza bilan ta’minlanganligi. | “O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashining 2022-yil 15-mart 54-son bayonnomasi bilan Komplayens - xizmatining tashkiliy tuzilmasi tasdiqlangan. | “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruv raisi – bosh direktorining 2023-yil 8-may 53, 54 – sonli buyrug‘i ilova qilinmoqda. |
| **13.** | Tashkilot rahbarlari tomonidan hay‘at yig‘ilishlari va boshqa yig‘ilishlarda tashkilot faoliyatining raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini | 2023-yil 14 - sentyabr sanasida “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi va Kuzatuv Kengashi yig‘ilishida raqobat tog‘risidagi qonunchilik talablariga muvoviqlikni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqildi.. | Kuzatuv kengashida majlisi bayonnomasi taqdim qilinadi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ta’minlash masalasi ko‘rib chiqilganligi. | | |
| **IV. Xodimlarning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olishga oid ichki tartib taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi.** | | | |
| **14.** | Hisobot yilida xodimlarning raqobat to’g’risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilganligi. | 2023 – yil davomida mas’ul shaxs tomonidan xodimlarning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari yuzasidan bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan jami 7 ta davra suhbati va o‘quv seminarlari tashkil etildi. | Davra suhbatlari interaktiv uslubda o‘tkazildi va barcha qatnashchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. https://t.me/umk_matbuot_xizmati/15877, https://t.me/umk_matbuot_xizmati/17261, https://www.uzbeksteel.uz/6078. |
| **15.** | Tashkilot xodimlarini raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus oquv dasturlari, qo’llanmalar mavjudligi. | Komplayens – xizmati tomonidan raqobat tog’risidagi qonunchilik talablari buzilish xavflarini aniqlash va oldini olishga qaratilgan monopoliyaga qarshi komplayens tizimini samarali tashkil samarali tashkil etish va mazkur tizim faoliyati uchun mas’ul bo‘lgan xodimlarning sohaga oid bilimlarini oshirish maqsadida “O‘zmetkombinat” AJ Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati va sohaga oid bilimlarini oshirish maqsadida qo‘llanma barcha xodimlarga tarqatildi. | Qabul qilingan Monopoliyaga qarshi kurashish Siyosati va Monopoliyaga qarshi komplayensga oid ma’lumotlar qo‘llanmasi ilova qilinmoqda. *https://www.uzbeksteel.uz/contacts/5606* |